

Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan “Soʻzda kamol topgan siymo” mavzusida maʼnaviy-maʼrifiy tadbir tashkil etildi

SamDCHTI akademik litseyi oʻquvchilari tomonidan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan “Soʻzda kamol topgan siymo” mavzusida maʼnaviy-maʼrifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida oʻquvchilar tomonidan Navoiy ruboiylari ifodali oʻqildi, kuy-qoʻshiqlar, sahna koʻrinishlari, raqslar hamda turli badiiy chiqishlar namoyish qilindi va oʻquvchilar buyuk shoirning boy adabiy merosi va maʼnaviy olamini mazmunli chiqishlar orqali yoritib berdilar.

Tadbir yakunida faol tashkilotchilar va ishtirokchilar faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Mazkur tadbir yoshlar qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat va adabiyotga boʻlgan qiziqishni yanada mustahkamladi.









SamDChTI Akademik litseyi Axborot xizmati